




MAVZU: Konuslar haqida ma'lumot.

REJA:

- TO'G'RI DOIRAVIY KONUS
- KONUSNING YON SIRTI VA TO'LA SIRTI HAQIDA MA'LUMOT
- KONUSLARNING HAJMI



1. To'g'ri doiraviy konus. Fazoda qandaydir S nuqta va biror l har xil chiziq berilgan bo'lsin. S nuqta orqali l chiziqni kesib o'tuvchi har xil to'g'ri chiziqlar o'tkazamiz.




1- chizma



www.spirefroc.com | promo wall

- Berilgan S nuqta orqali berilgan l chiziqni kesib o'tuvchi a to'g'ri chiziqning harakati natijasida hosil bo'lgan sirt **konik sirt** deyiladi.

S nuqta konik sirtning uchi, l chiziq esa uning *yasovchisi* deyiladi.



To'g'ri doiraviy konus deb, S uchdan birtomonda yotgan konik sirt va doira bilan chegaralangan hamda: 1) *yo'naltiruvchisi aylanadan iborat* 2) S uch chegaralovchi diraning markaziga proyeksiyalanadigan geometrik jisimga **1** aytiladi.

2- chizma

3- chizma



- Konusni chegaralovchi doira uning asosi deyiladi. Konusning S uchidan asos tekisligiga tushirilgan SO perpendikulyar konusning balandligi, shuningdek, uning o'qi ham deyiladi. (2-chizma).

Konusning o'qi orqali o'tgan kesim uning *o'qi kesimi* deyiladi.

Agar konusni uning SA yasovchisi bo'yicha kesib, tekislikka Yoysak, konusning yoyilmasi deb ataladigan shaklini hosil qilamiz (3-chizma). Konus yon sirtining yoyilmasi ASA doiraiy sektordan iborat. Konusning yoyilmasida sektorga konus asosida yotuvchi doira qo'shib qaraladi.



Konusning yon sirti va to'la sirti.

Konus yon sirtining yuzi sifatida uning yon sirti yoyilma simon yoyilmasining yuzi qabul qilingan l konusning yasovchisi, r uning asosi radiusi, ABA yoyning (boshqacha aytganda, konus yoyilmasi burchagining) gradus o'lchovi α ga teng bo'lsin (3-chizma).

U holda konus yoyilmasining radiusi l , ABA yoyning uzunligi $2\pi r$ bo'ladi. Shu sababli konus yon sirtining yuzi SAA sektorning yuzi kabi hisoblanadi:



$$\bullet S_{\text{yon}} = \frac{\pi/2}{360^\circ} \alpha$$

Endi **ABA** yoyning uzunligi uchun olingan ifodalarni tenglashtiramiz:

$$2 \pi r = \frac{2\pi}{360^\circ} \alpha \quad \text{Bundan}$$


$$\alpha = \frac{360^\circ \cdot r}{l}$$




- **KESIK KONUS.** Biror konusda uning o'qiga perpendikulyar tekislik o'tkazamiz. Kesimda tekisligi berilgan konus asosining tekisligiga paralle hosil qilamiz. O'tkazilgan tekislik berilgan konusdan yangi konus kesadi, konusning qolgan qismi esa *kesik konus* deyiladi.

Kesik konusni chegaralovchi doiraning uning *asoslari* deyiladi.

Konus asoslarini tutashtiruvchi *OO* kesma kesik konusning *balandligi* deyiladi.



4- chizma



5- chizma

Konus sirtining kesik konusini chegaralovchi qismi uning *yon sirti* deyiladi. Konus yasovchilarining kesik konus asoslari orasida joylashgan qisimlari kesik konusning *yasovchilari* deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) I. Isroilov, Z. Pashayev

“ Geometriya, II qism: Akademik litseylar uchun sinov darslik” Toshkent-2005.

2) A.V. Pogorelov “Geometriya” 6-10 sinflar uchun, Toshkent – 1987 yil.